

## KIMYO FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK INTEGRATSIYANING MAQSADI

Bekpo'latov Hasan Olim o'g'li  
Guliston davlat universiteti doktoranti  
Тел: +99899 473-51-58  
E-mail: [bekpolatov1994@inbox.ru](mailto:bekpolatov1994@inbox.ru)

### Annotatsiya

Fanlararo integratsiya bu o'quv-idrokiy faoliyatning motivatsiyasini, bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga qiziqishni rag'batlantiruvchi vositalardan biri; integratsiya yordamida maktabda o'zlashtirilgan bilimlarning real hayotda ehtiyojlari bilan aloqasi amalga oshiriladi. Pedagoglar nuqtai nazaridan fanlararo pedagogik integratsiya tabiat qonunlarining universalligi va birligiga, o'quvchi – sub'ekti tomonidan atrofda olamni idrok etishning to'liqligiga asoslanadi. Integratsiyalashgan kursni yaratishda turli fanlarning tematik jixatdan bog'langan mazmuni bir-birini to'ldiradi. Ushbu maqsadga erishish uchun o'qituvchining shaxsiyati, uning har tomonlama tayyorgarligi, keng dunyoqarashi va fikrlashining egiluvchanligi ayniqsa muhim ro'l o'ynaydi.

**Kalit so'zlar:** Motivatsiya, integratsiya, pedagog, ko'nikma, malaka.

O'quvchilarning o'quv-idrokiy faolligi motivatsiyasini oshirish. O'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish xam rus ham xorijlik tadqiqotchilar fikricha, fanlararo pedagogik integratsiyaning zarur maqsadi sanaladi. Fanlararo integratsiya - bu o'quv-idrokiy faoliyatning motivatsiyasini, bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga qiziqishni rag'batlantiruvchi vositalardan biri.

Integrativ xarakterga ega o'quv jarayonining asosiy maqsadi adekvat ta'lim texnologiyalari yordamida o'quvchi shaxsini yaxlit, har tomonlama rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirish hisoblanadi. AQSh pedagoglarining fikricha, integrativ ta'lim dunyodagi global munosabatlarni yaxshiroq tushunish, turli nuqtai nazarlarni, qadriyatlarni idrok etish, ko'plab taraqqiyot istiqbollarini anglashga olib keladi.

Bu o'qituvchilarga turli fan muammolari o'rtasidagi analogiyani topishga va o'quvchilar oldiga murakkab vazifalarni qo'yish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida o'quvchilarga turli hodisalar o'rtasidagi semantik munosabatlarni amalga



oshirish uchun sharoit yaratadi, ushbu fan doirasida ularning bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirishga olib keladi, o'quv predmetining to'liq suratini shakllantiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu maqsad – fanlararo integratsiya orqali bilimlar fragmentarligining oldini olish bo'lib, o'quvchilarga turli sohalardagi bilimlar o'rtasidagi munosabatni topishga yordam berish, shuningdek, maktabda olingan bilimlarni real hayot ehtiyojlari bilan bog'lash – xam rus tadqiqotchilari, xam AQSh tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchining ko'nikma va malakalarini shakllantirish. AQShda ko'plab tadqiqotchilar, masalan, M. Martinelli va B. Sent-Klyar, integrallashgan o'quv rejasini tashkillashtirish markaziga tadqiqotchilik kompetentsiyalarini qo'yishadilar. Ushbu pedagoglarning fikriga ko'ra, o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarini rivojlantirishi aynan integrativ ta'limning asosiy maqsadi hisoblanadi. O'quvchilar tadqiqotchiligini o'tkazishda mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlari kengayadi, topshiriqlarni bajarishga ijodiy yondashuv ko'proq qo'llaniladi, tanqidiy va muammoli fikrlash shakllanadi, o'quvchilarning yangi murakkab muammolarni hal qilish uchun kerakli ma'lumotlarni aniqlash, baholash va o'zgartirish qobiliyatlari rivojlanadi. Muammoli fikrlashni alohida maqsadli yo'nalish sifatida rivojlantirish ba'zi tadqiqotchilar tomonidan belgilangan. Shu tariqa, M.A. Shatalovning batafsil tadqiqot ishi, kimyo fanini o'qitishdagi muammoli-integrativ yondashuvga bag'ishlangan.

O.V. Syutkina shuningdek, yuqoridagilardan tashqari, turli mamlakat pedagoglari fanlararo pedagogik integratsiyaning quyidagi maqsadli yo'nalishlarini ajratib ko'rsatishini ta'kidlaydi:

1. axboriy jihatdan yanada salmoqli integrallashgan o'quv materialini mazmuni orqali shaxsning intellektual rivojlanishi;
  2. gumanitar va tabiiy fanlar ta'limi o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish;
  3. bir yoki bir nechta fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish;
  4. ijtimoiy o'zaro ta'sir ko'nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, o'zini jamiyatning muhim a'zosi sifatida idrok etishga ko'maklashish;
  5. o'quvchilarning olamning madaniy jihatdan xilma-xilligini idrok etish;
  6. o'z qarashlari, fikrlari va munosabatlarini shakllantirish, integratsiyalashgan ta'lim jarayonida oldingi bilimlari, o'quvchilarning tajribasidan foydalanish.
- Pedagoglar, pedagogik integratsiyaning yuqorida aytilgan maqsadlariga qo'shimcha ravishda, quyidagilarni ajratib ko'rsatishadi: o'quvchilar yuklamasini kamaytirish,



ta'lim va sinfdan tashqari ishlar birligiga erishish, madaniyat olamiga bolani faol va ijodiy sho'ng'ishi, ta'limni insonparvarlashtirish.

Shunday qilib, ta'limdagi fanlararo pedagogik integratsiya haqidagi qarashlarning o'zaro bog'liqligi jarayonning umumiy maqsadli yo'nalishlari haqida gapirish imkonini beradi. Ta'limdagi pedagogik integratsiyaning umumiy maqsadlari o'quvchilarning yaxlit, har tomonlama rivojlanishi va ularning bu dunyodagi o'rni xaqida xabardorligi; fanlararo ta'lim orqali bilimlarning fragmentarligining oldini olish va maktabda olingan bilimlarning real hayot ehtiyojlari bilan aloqasini amalga oshirish; tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarini shakllantirish; fakt va hodisalarni baholashda o'quvchining tanqidiy fikrlashini shakllantirish xamda uning muammoli tafakkurini rivojlantirish; o'quv-idrokiy faoliyati motivatsiyasini oshirish kabilar sanaladi.

Fanlararo pedagogik integratsiya hodisasini hisobga olgan holda, uning darajasini tahlil qilish muhim hisoblanadi. O.V. Syutkina fikriga ko'ra, fanlararo integratsiyasi differentsiatsiyasining asosiy mezonini turli xarakterga ega materiallarni o'zaro singdirishning ifodasi darajasi hisoblanadi. O'quv fanlarining integratsion aloqasi uchta darajada amalga oshirilishi mumkin, ular o'quv jarayonida amalga oshiriladigan integratsiyaning mazmun va protsessual jihatlari asosida yotadigan, u orqali hal qilinadigan didaktik vazifalar, shuningdek, integratsiyaning o'zaro ta'sirining ayrim turlariga bog'liq bo'ladi

M.N. Berulava tadqiqotiga ko'ra, pedagogik integratsiya ikki fanlararo (ikki predmet o'zaro ta'sir qilganda) va ko'p fanlararo (bir nechta fanlar) bo'lishi mumkin. A.Ya. Danilyuk fanlararo integratsiya integrallashgan gumanitar ta'lim makoni bo'lgan yangi tashkiliy didaktik birlik paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin, deb qayd etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Борунова Е.Б. Химия на английском: не навреди. Журнал «Химия в школе»- 2008г. №7, стр 35-36
2. Борунова Е.Б.,Перевозчикова Н.В. О реализации межпредметных связей химии с английским языком. Журнал «Химия в школе» -2010г.№1,стр 26-3
3. Салеева М.В. Развитие языковой личности в процессе межпредметной интеграции инязыка. «Развитие психологии личности и педагогических проблем социальной педагогики. Материалы РНТК. Минск. – 1998г.



4. Косилова М.Ф. Издержки экономной стратегии мозга. Журнал «Вопросы психологии» -1990г. №2, стр 110-116
5. Аршанский Е.А. Методика обучения химии в классах гуманитарного профиля. Москва. Вентана\_Граф -2005г 226 стр.

